


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70211003 – San'at nazariyasi va tarixi*  
*magistratura mutaxassisligining*

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “ 01 ” 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>9</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>10</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70211003 – San’at nazariyasi va tarixi mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo’llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talabi 70211003 – San’at nazariyasi va tarixi mutaxassisligi bo’yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o’qitish, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O’zbekiston Badiiy akademiyasi, O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlar, O’zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tizimidagi muzey va galereyalar, xalqaro ko’rgazmalarni tashkil etish, san’at va madaniyat muassasalarini boshqarish jarayonlari, zamonaviy san’at sohasiga yo’naltirilgan davlat va nodavlat tashkilotlari bilan bog’liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

- Oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- O’zbekiston Badiiy akademiyasida tasarrufidagi muassasalarda faoliyat olib borish;



- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda ilmiy-ijodiy faoliyat olib borish;
- san'at tarixi va nazariyasiga oid ilmiy matnlarni tahrir qilish;
- madaniy turizm muassasalari va muzeylarda faoliyat olib borish;
- san'at va madaniyat muassasalarini boshqarish jarayonlari;
- tasviriy va amaliy san'at asarlarini badiiy ekspertizadan o'tkazish jarayonlari;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlarida **san'atshunos mutaxassis**.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot tahliliy faoliyat;

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70211003 – *San'at nazariyasi va tarixi* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan san'atshunoslikka oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

san'atshunoslik obyekti va predmetlarining shu kungacha o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtirok etish;

mutaxassislikka mos yangi ilmiy-tadqiqot izlanishlar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etish;

san'atshunoslik bo'yicha amaliy masalalarni yechish uchun yangi ilmiy metodologiyalarni qo'llash;

sohaga oid ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha jahon san'atshunosligiga oid zamonaviy dolzarb muammolarni tadqiq qilish;

ilmiy ish yaratishda dolzarb muammolarni aniqlash va uni ilmiy o'rganish bo'yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo'lish;

xorijiy va respublika miqyosida sohaga oid o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda ilmiy tadqiqot natijalari bilan ishtirok etish;

xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

Zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan san'at asarlarining yaratilish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

xalqaro va respublika ko'rgazma, festival va biyennalilarini tashkil etish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

san'at asarlarini saqlash jarayonlarida atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish, marketing va boshqaruv;

muzey va galereyalarda o'zbek xalqining boy madaniy merosi, uning insoniyat tarixidagi o'rni, taraqqiyot bosqichlarini, zamonaviy rivojlanish istiqbollari chuqur o'rganib ekspozitsiya konsepsiyalarini yaratish,

sohaga tegishli meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bajarilishini ta'minlash ishlarida ishtirok etish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta mahsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida (o'rnatilgan tartibda):**

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

elektron o'qitish usullarini egallashi;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlashi va rasmiylashtirishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

**Turli xizmatlar ko'rsatish:**

Tasviriy va amaliy-bezak san'at asarlarini atributsiyalash, ekspertiza qilish, narxi va sug'urta bahosini aniqlash, auksionlar tashkil qilish;

badiiy muzeylarda kolleksiya ashyolarini saqlash va targ'ib qilishda metodik nashrlarni tayyorlash, sohaga oid treninglar tashkil etish, badiiy ashyolarni ekspertiza qilish;

tasviriy va amaliy-bezak san'ati sohasida aholiga va sayyohlarga malakali ekskursiyalar tashkil qilish, aholi va mehmonlarga yuqori saviyada xizmat ko'rsatish;

san'atshunoslik va muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalar hamda o'zaro foydali hamkorlik rejaları tuzish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;



jahon badiiy jarayonidagi hodisalarni ilmiy-nazariy anglashi, tasviriy va amaliy san'atga doir ilmiy-metodologik masalalarni tushunishi, badiiy uslub va tendensiyalarni aniqlay olishi;

xorijiy tillardan birida sohaga oid ilmiy manbalardan foydalana olishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilish va kasbiy faoliyatda undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

xorijiy tillarning birida ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida foydalana olish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga ega bo'lishi, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

o'zining individual bilimlariga tayangan holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash, davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

mutaxassisliklari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida doktorant yoki mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondasha olishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.**

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti uchun*

San'at nazariyasi va tarixi mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	JBNA1212	Jahon badiiy jarayonlarining nazariyasi va amaliyoti	360	12	1,2
1.04	MOAST1212	Markaziy Osiyo amaliy san'ati tarixi	360	12	1,2
1.05	MOTST1316	Markaziy Osiyo tasviriy san'ati tarixi	480	16	1,2,3
1.06	BUFEA1106	Badiiy uslublarning falsafiy-estetik asoslari	180	6	3
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, san'atshunos			
		<b>Jami</b>	<b>1980</b>	<b>66</b>	
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti uchun*

San'at nazariyasi va tarixi: kinoshunoslik mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
1.01	ITM 10014	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 10012	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60	2	2
1.03	KN 100114	Kino nazariyasi	420	14	1,2,3
1.04	HFA 100110	Hujjatli film asoslari	300	10	2,3
1.05	KTAN 100110	Kino tanqidchiligi	300	10	1,2
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>1,2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	600	20	1,3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, kinoshunos, san'atshunos			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi uchun*

San'at nazariyasi va tarixi mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar					
T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1260</b>	<b>42</b>	<b>1,2,3,4</b>
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	PTPM1106	Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat	180	6	1
1.03	XTN11208	Xoreografiya tamoyillari va nazariyasi	240	8	1,2
1.04	DNR11208	Drama nazariyasi va rejissurasi	240	8	1,2
1.05	B12310	Baletshunoslik	300	10	2,3
1.06	RBMT13406	Raqs va balet musiqasi tahlili	180	6	2
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>3,4</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	540	18	3,4
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, lektor, tanqidchi			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002- 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, san'atshunoslik, badiiy tanqid, san'at oqimlari, badiiy yo'nalishlar, jamiyat va san'at, tarixiy-madaniy meros, etnomadaniy komponentlar, art – bozor, badiiy jarayon, amaliy san'at, san'at nazariyasi, badiiy an'analar, san'at sotsiologiyasi, san'at uyg'unligi, tahlil, tanqid, globallashuv, modernizm, realizm, postmodernizm, biyennale, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot, virtual elektron bilim manbalari, xorijiy til, meyoriy hujjatlar, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektor  A. Mirzoraximov

2024-yil " " "




KELISHILGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev

2024-yil " " "



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024-yil " " "



O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A. Nuriddinov

2024-yil " " "



M.O'.

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi

Direktor  I. I. Yusupov

2024-yil " " "

M. O'.

